



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



5. Копыленко М., Попова З. Очерки по общей фразеологии. –Воронеж: изд-во ВГУ, 1972. –122 С.
6. Рахматуллаев Ш. Узбек тилининг қисқача фразеологик луғати. –Тошкент: «Фан» нашриети, 1964.
7. Шерматов А. Узбекские народные говоры Кашкадарьинской области. – Ташкент: Фан, 1978. – 144 с.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/UKCN3710

MATN TUZILISHINI BELGILOVCHI KOMPONENTLAR TAHLILI

Mavlonova Klaraxon Mahmudovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

klaramavlonova78@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-4954-9996

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5–9-sinf ona tili darslarida o'quvchilarga matn tuzilishini o'rGANISH imkonini beradigan, ya'ni ta'limiY birliklarni o'zida aks ettiradigan komponentlarni aniqlashtirish, ular yuzasidan qoidalar shaklida qanday bilimlar berish kerakligi muammosini lingvistik asoslarni aniqlab olish orqaligina hal etish mumkinligi masalasi tadqiq etilib, matn tilshunosligiga doir ilmiy-nazariy manbalar asosida matn tuzilishini belgilovchi komponentlarni aniqlashtirish bilan bog'liq tahlillar amalga oshirilgan, matnning kichik bir qismi orqali butun matn tuzilishini o'rgatish qulay bo'lgan yaxlit bir komponentni (aniq til birliklari jamlamasini) ajratish, atash va shu komponent asosida matnning tuzilish xususiyatlari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'lish, matn tuzishga doir qoidalarni shakllantirish va mashqlar tizimini ishlab chiqish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot birligi, matn lingvistikasi, matn tuzilishi, matn qismlari, abzas, murakkab sintaktik butunlik, xatboshi, shakliy komponent, til ta'limi.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о выделении компонентов, отражающих учебные единицы в преподавании родного языка в 5–9 классах, предоставляющих учащимся возможность изучать структуру текста. В статье утверждается, что для решения этой проблемы необходимо выявить лингвистические основы, чтобы определить, какие знания о структуре текста следует преподавать в форме правил. На основе научно-теоретических источников в области лингвистики текста проводится анализ с целью выявления компонентов, определяющих структуру текста. Обсуждается подход к обучению всей структуре текста через небольшой, но целостный компонент (определенный набор языковых единиц), как оформить и назвать этот компонент, и как он может служить основой для понимания особенностей текста, формирования правил композиции текста и разработки системы упражнений.

Ключевые слова: коммуникативная единица, лингвистика текста, структура текста, компоненты текста, абзац, сложное синтаксическое целое, отступ, структурный компонент, языковое образование.

Abstract. This article explores the issue of identifying components that reflect educational units in teaching native language classes in grades 5–9, providing students with the opportunity to study text structure. The article argues that solving this problem requires identifying linguistic foundations to determine what kind of knowledge about text structure should be taught in the form of rules. Based on scientific and theoretical sources in the field of text linguistics, analyses are conducted to identify the components that define the structure of



a text. It discusses the approach of teaching the entire structure of a text through a small but integral component (a specific set of linguistic units), how to designate and name this component, and how it can serve as the basis for understanding textual features, forming rules for text composition, and developing a system of exercises.

Key words: *communicative unit, text linguistics, text structure, text components, paragraph, complex syntactic whole, indentation, structural component, language education.*

Bugungi kungacha matn tuzilishi bilan bog'liq komponentlar qanday nomlanishi kerakligi masalasida aniq bir to'xtamga kelinmagan.

"Matnning tarkib topishi va mavjud bo'lishida yagona bir butunlikni tashkil etuvchi mazmun doirasi va shakl ko'rinishlari turli asosga ega bo'ladi: mazmun butunligi voqelikdagi hodisani to'liq aks ettirish maqsadi bilan bog'liq bo'lsa, shakl ushbu mazmunni bayon etish uchun xizmat qiluvchi lisoniy belgilar tuzilmasidir. Demak, matn shakliy tuzilishi jihatidan ikki qobiqli hodisa sifatida qaralishi lozim, chunki unda janr va uslub shakllari birikadi. Bunda janr umumiy shaklning obyektiv asosini yaratса, uslub uning subyektiv tomonini yuzaga keltiradi" [1: 7]. Shunga ko'ra, tuzilayotgan matn axborot yetkazish vositasi sifatida o'quvchiga mo'ljallanib, ta'sir darajasini ta'minlash maqsadida muloqot uchun maqbul shakl va mazmun (janr va uslub) bilan ta'minlanadi. Ushbu darajani o'rganish va egallashda tilshunoslarning yaxlit matn emas, balki uning bir komponenti ta'lif obyekti va predmeti bo'la oladi, degan fikriga amal qilish to'g'ri bo'ladi.

Tilshunoslikka doir adabiyotlarda talqin qilinishiga ko'ra, matn tuzilishi ikki xil: keng va tor ma'nolarda tushuniladi. Keng ma'noda matn kirish, asosiy qism va xulosadan iborat ekani, ular bilan bog'liq ayrim o'rganish muhim bo'lgan til birliklari mavjudligi nazarda tutilsa, tor ma'noda matn sintaksisiga oid manbalarda ajratilayotgan murakkab sintaktik butunlik va abzas bilan bog'liq matn tuzilishi nazarda tutiladi. Ayni tor ma'nodagi matn tuzilishi ona tili ta'limi uchun keng qamrovga ega bo'lib, ta'limiy birliklarni ajratish, shu birliliklar asosida o'rganish ishlarini tashkil etish, keng doiradagi, keng ko'lamli bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash hamda rivojlantirish, ushbu bilimlarni qoidalar va mashqlar tizimi sifatida shakllantirish mumkin.

O'zbek tilshunoslari va metodist olimlari matn lingvistikasi tarixiga nazar tashlar ekanlar, xorij, xususan rus tilshunoslari (A.M.Peshkovskiy, N.S.Pospelov, I.A.Figurovskiy, I.R.Galperin, L.M.Loseva, F.I.Buslayev, L.A. Bulakovskiy G.Y.Solganik va boshqalar) matnning gapdan katta sintaktik birligini (qismi, komponentini) turlicha atagashgan: *supersintaktik butunlik, murakkab sintaktik butunlik, abzas, diskurs, podtekst, qism, gaplar guruhi, frazadan katta birlik, matn komponenti, registr, jumla, prozaik strofa, sintaktik kompleks, monologik jumla, kommunikativ blok* va hk.

Matn lingvistikasining yuzaga kelish tarixi, ildizlari, matnning umumiy tuzilish xususiyatlari yoritilgan izlanishlardan biri S.Muhamedova, M.Saparniyozovalarning "Matn lingvistikasi" nomli o'quv qo'llanmasidir. Mazkur o'quv qo'llanmada rus va xorij tilshunoslari, o'zbek tilshunoslari matn tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlari asosida matn, uning izoh va talqinlari, matn



komponentlari bilan bog'liq muammolarning turli davrlarda yechilish tarixi, bugungi xulosalar haqida mufassal so'z yuritilgan, bir qator tilshunoslar (M.Yo'ldoshev, Sh.Haydarov, Sh.Shahobiddinova, Z.Isoqov va b.) matn tuzilishiga xos til birliklari haqidagi fikrlarga e'tibor qaratilgan [2: 21].

"Matnning semantik-struktur tuzilishini rus tilidagi og'zaki va yozma nutq misolida tadqiq etgan R.A.Karimova doktorlik dissertatsiyasida matn faqat grafik, yozma shakldagina emas, balki og'zaki shaklda ham namoyon bo'ladigan nutqiy asar bo'lib, bunda og'zaki shakl genetik asos ekanini alohida ta'kidlaydi va faktlarning tahlillaridan kelib chiqqan holda "bir qarashda matn makonining qarama-qarshi nuqtalarida joylashganday ko'rinishdigan og'zaki spontan matn va yozma matn (badiiy matn) umumiyl xususiyat – muayyan tuzilishga ega" degan nazariy xulosaga keladi". [3: 188].

Xorij va o'zbek tilshunoslida matn tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning aksariyatida matn birliklari haqida gap borganda, tahlillar pirovardida shunday birliklar sifatida, asosan, supersintaktik butunlik, murakkab sintaktik butunlik va abzas sanab o'tilgan. Ayrim manbalarda murakkab sintaktik butunlik va abzas tushunchalari tenglashtirilgan, ayrimlarida farqlangan. Maktab ona tili ta'limi uchun ulardan qay birini tanlash kerakligini hal qilish maqsadida tilshunoslilikka doir manbalardan ularning mushtarak va farqli jihatlari yoritilgan fikrlarga e'tibor qaratamiz.

M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn lingvopoetikasi" nomli qo'llanmasida badiiy matn haqidagi fikrlar shunday izohlanadi: "Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek, qat'iy mantiq, soddalik, tushunarilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalilanildi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llanadi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi" [4: 35]. Ko'rinchadi, muallif matn tuzilishi haqida gapirganda murakkab butunlik ifodasini qo'llaydi.

M.Rixsiyevning "Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish" mavzusidagi tadqiqot ishining birinchi faslida [5: 27] bir qator masalalarni: 1. Matn va MSB munosabati. 2. Matn va mavzu. 3. MSB va abzas. 4. MSBning tashkiliy (kompozitsion) qismlari. 5. MSBning semantik-grammatik qurilishi ko'rib chiqar ekan, matn lingvistikasining tilshunoslilikda yoritilishini ham tahlil qiladi. Ushbu muammoga aniqlik kiritish maqsadida muallif rus tilshunoslari va metodist olimlarining (A.M.Peshkovskiy, N.S.Pospelov, I.A.Figurovskiy, I.R.Galperin, L.M.Loseva, F.I.Buslayev, L.A. Bulakovskiy, G.Y.Solganik va boshqalarning) matn lingvistikasiga doir fikrlariga tayanadi.

A.M.Peshkovskiy bu murakkab sintaktik birlikni "abzas" deb atab, unga shunday ta'rif berdi: "Asl adabiy nutqda (so'zlashuv nutqida emas) murakkab



butunlikdan ham yirikroq birlik bor. Bu bir xatboshidan ikkinchisigacha bo'lgan murakkab butunliklar birikmasidir. Afsuski, ushbu birlik uchun sintaktik atama mavjud emas, shuning uchun biz bu yerda tipografik (buning ustiga chet tildagi) "abzas" atamasidan foydalanishga majburmiz".

N.S.Pospelov jumladan katta birlikni birmuncha kengroq ta'riflab, "... bog'lanishli nutqning sintaktik birligi sodda yoki qo'shma gap emas, balki bog'lanishli nutq kontekstidan ajratib olinganda ham o'zining sintaktik jihatdan mustaqillik va tugallanganlik xususiyatlarini saqlab qoluvchi murakkab sintaktik butunlik" ekanini ta'kidlaydi [5: 16–17].

I.A.Figurovskiy matn komponentlarini ularning quyidagi 8 xususiyatiga ko'ra tasniflaydi:

- 1) mazmun birligi;
- 2) mazmunning aniqligi;
- 3) biror gap yoki komponentga nisbatan yaxlit komponent uchun umumiyl bo'lgan mavhum munosabat;
- 4) komponentga kirgan gaplar orasida qo'shma gap qismlaridagi munosabatga qaraganda so'zlarning katta guruhlarini qamrab olish oqibatida yuzaga keladigan ancha chuqur munosabatlar;
- 5) bog'lanishning ko'p tomonlamaligi;
- 6) tugallangan gaplar orasidagi munosabatni ifodalash uchun grammatik vositalar, shuningdek, ular bilan bir qatorda leksik vositalarning nisbatan erkin qo'llanishi;
- 7) gaplarning odatdagidek to'liq bo'lmasligi;
- 8) ko'p hollarda predmetlarning nomlari, belgi-xususiyatlari, harakat-holatlarini olmoshlar va olmoshli birikmalar bilan almashtirib qo'llash [5: 18–19].

Ko'rindiki, sintaktik birlik komponentlari haqida so'z borganda abzas komponentlarga ajratilmaydi, balki murakkab sintaktik butunlik asos qilib olinadi.

Ushbu tahlillar kengaytirilgan, ayrim aniqliklar kiritilgan holda R.Yo'ldoshev, M.Rixsiyevalarning "Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi" nomli metodik qo'llanmasining birinchi bobida o'z aksini topgan [6].

N.S.Valgina abzas bilan murakkab sintaktik butunlikning farqini aniq tarzda ochishga harakat qilgan:

"Abzas – bu matnning kompozitsion-stistik bo'linish birligi; bu matnning ikki xatboshi orasiga olingan qismi.

Murakkab sintaktik butunlik – bu boshlama-jumla (yoki bir butunlik mazmunini o'ziga qamrab oladigan tayanch jumla) bilan ochiladigan temarematik izchillik (ketma-ketlik). Murakkab butunliklarning ayni boshlama-jumlalari ixcham holda birgalikda matnning mazmuniy o'zanini hosil qiladi" [7: 36].

S.Sadixovaning metodik qo'llanmasida ta'kidlanishicha, "Intonatsiya gaplarni MSBga birlashtirishning tashqi vositasi bo'lib, ko'pincha kuzatiladigan holat – oxiriga borib ovozning bir me'yorda pasayib boruvchi gaplarning



ritmomelodik shakllanishining ayni bir xilligi bilan bog'liq. Gaplar orasidagi to'xtamlarning bir xilligi ham shunga ishora qiladi" [8: 6].

Muallifning fikricha, "MSBning umumiy ma'noviy va formal alomatlari kabi xususiy alomatlari faqat bog'lanishli nutqning yaxlit matnida ayon bo'ladi. Nutq oqimida bir MSBni boshqasidan chegaralovchi asosiy belgilar, aytib o'tilganidek, ularning chegaralarida jumlalararo aloqaning zaiflashuvida namoyon bo'ladi".

E.N.Osipovaning ta'kidlashicha: "Ma'no-mazmuniy bir butunlikka (yaxlitlikka) mavzuviylik bilangina emas, balki muammolilik va g'oyaviy mazmun orqali ham erishiladi. Matnda mikromavzuga abzas yoki murakkab sintaktik butunlik (MSB) mos keladi. Abzas bir nechta murakkab sintaktik butunlikdan iborat bo'lishi va, aksincha, bir nechta abzas bitta murakkab sintaktik butunlikni hosil qilishi mumkin. Ma'no-mazmuniy tahlil darajasida abzas boshqa bo'linmaydi, uning har bir elementi (hatto tovush) ma'noga ega bo'ladi. Yozma matnning ushbu kompozitsion ma'no-mazmuniy birligi muayyan tuzilishga ega: tayanch va izohlovchi qismdan iborat bo'lishi, uch qismli tuzilmaga: tayanch jumla, izohlovchi qism va tugallanmaga ega bo'lishi ham mumkin [9: 4].

Ko'rindiki, xorij tilshunosligida abzas bir jihatdan xatboshi vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, u kichik mavzu doirasida birlashgan gaplarni ajratish, ayrim muhim fikrlarga mantiqiy urg'u berish uchun xizmat qiladi. Bunda u tashkiliy-texnik vazifanigina bajarmay, N.S.Valgina yuqorida ta'riflaganidek, "matnning kompozitsion-stilistik bo'linish birligi" hisoblanadi.

N.S.Valginaning fikricha, "Abzasning asosiy mo'ljali - matnni uning komponentlarini ajratib ko'rsatish uchun parchalarga bo'lish, bu narsa, shubhasiz, xabarning idrok etilishini osonlashtiradi, chunki o'qish paytida bir qadar "dam oldiradi", shuningdek, aksentlarni joy-joyiga qo'yadi. Abzaslarga bo'linmagan matn qiyinchilik bilan idrok etiladi; uning kitobxonga bo'lgan ta'sir kuchi pasayadi. O'qishning qiyinlashuvi qiziqishning yo'qolishiga va diqqatning o'tmaslashuviga olib keladi" [7: 45].

Abzas avvalo nutqning kompozitsion bo'linish birligidir, ya'ni matnning mazmuniy va kompozitsion ahamiyatli parchasini ajratish vositasidir. Ba'zan matn qismlarini abzaslarga ajratib ko'rsatish matnning funksional-uslubiy xususiyatlari bilan, shuningdek axborotni tartibga solish va bayon qilish muallifning individual uslubi (manerasi) bilan bog'liq.

"Matniy punktuatsiyani uning mazmuniy xossalari jihatidan tahlil qilishda abzasning asosiy matniy belgi sifatidagi mo'ljali va imkoniyatlarini, birinchi navbatda, ma'noviy harakatni ko'rib bo'lmaydigan asosiy "punktuatsion qadam"ni aniqlamay turib uddalash mumkin emas. Ayni abzas ahamiyatli, muhim, faqat vizual taqdim etilgan jihatlar sifatida baholanishi va idrok etilishi kerak bo'lgan matn elementlari, komponentlarini reprezentatsiyalashni ta'minlaydi" [10: 22-23].

"Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da murakkab sintaktik butunlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Fikran, ayni vaqtida leksik, grammatik va boshqa til vositalari yordamida o'zaro bog'langan mustaqil gaplar guruhi: Yangi



Toshkentning ko'chalarini, osmono'par binolarini, so'lim xiyobonlarini zavq bilan tomosha qilib, ajib koshona qarshisida bir zum to'xtalamani.

Oppoq marmardan tiklangan chinniday qasr. Bu binoni qo'li gul ustalar, mo'jizakor naqqoshlar yaratishdi. Qadoq qo'l imoratsozlar va mohir muhandislar unga ko'rк va fusun baxsh etdilar... Bu bino poytaxtimning ayni markazida — Toshkent yuragida qad ko'tardi. U Sharq quyoshi nurlariga ko'milib, oppoq tovlanib turibdi (R. Fayziy)" [11: 68].

Ko'rindiki, mavjud manbalarda matn tuzilishi, uni tashkil etuvchi komponentlar ma'lum darajada keng va batafsil yoritilgan. Ushbu manbalar metodik muammolarni hal etish uchun yetarli lingvistik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, har qanday kattalikdagi matndan ajratib olinganda o'z sintaktik tuzilishi jihatidan mustaqillik va tugallanganlik xususiyatlarini saqlab qoluvchi murakkab sintaktik butunlik ta'limiy birlik sifatida belgilanishi, abzas uning shakliy komponenti, murakkab sintaktik butunlik uni o'quvchiga ta'sir kuchini oshirish, mantiqiy urg'u berish maqsadida bir necha abzasga bo'lib ko'rsatish vositasi deb qaralishi kerak. Ayni paytda o'zbek tilida *xatboshi* tushunchasi mavjudligi, ushbu tushuncha ma'nosida *abzas* atamasidan foydalanilmasligini unutmaslik lozim. Chunki o'zbek tilshunosligida *abzas* murakkab sintaktik butunlikni atash tarzida tilga olinadi.

Maktab ona tili ta'limida o'quvchilarni berilgan kichik mavzuda matn tuzishga o'rgatish uchun murakkab sintaktik butunlik atamasidan foydalanish noqulayligini inkor etib bo'lmaydi. MSBni qanday atash kerakligini amaliyot orqali aniqlashtirish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Боймирзаева С. Бадиий матнда қўшма гап. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2008. – 114 б.
2. Муҳамедова С., Сапарниёзова М. Матн лингвистикаси. – Тошкент, 2011. – 118 б.
3. Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 188 b.
4. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвopoетик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 160 б.
5. Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб борилаётган мактабларнинг ўзбек тили дарсларида ўқувчиларга матн тузишни ўргатиш методикаси. Пед.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2009. – 144 б.
6. Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019. – 130 b.
7. Валгина Н.С. Теория текста. – М.: Логос, 2003. – 173 с.
8. Садыхова С. Композиционно-смысловая структура синтаксического целого. – Баку: Нурлан, 2010. – 56 с.
9. Осипова Э.Н. Лингвистика текста и ткучтовый аспект изучения синтаксиса в школе. Учебно-методические рекомендации. Издание 3-е, дополненное. – Архангельск: Поморский государственный университет им. М.В.Ломоносова, 2009. – 38 с.
10. Кольцова Л.М. Абзац в структуре художественного текста. Мир русского слова. 2011. № 3.
11. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 165 б.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/POVM7130

ЛЕТНИЕ ЛАГЕРЯ КАК ПРОСТРАНСТВО ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ: ОПЫТ БАШКОРТОСТАНА

Кобыскан Александр Степанович

*кандидат филологических наук, старший научный сотрудник Института стратегических исследований Академии наук Республики Башкортостан,
Уфа, Россия*

*sgtpepper1989@yandex.ru,
ORCID 0000-0001-6454-2659*

Аннотация. Статья посвящена исследованию механизмов сохранения традиционных культур и социальной интеграции в полиэтническом обществе на примере Республики Башкортостан. На основе анализа четырех образовательных кейсов летних лагерей «Йэйлэү», «Сәләт-Тулпар», «Усточикар» и «Хилтон» раскрывается роль этнокультурных практик, языкового погружения и народных промыслов в формировании поликультурной идентичности у подростков. Лагеря демонстрируют три стратегии интеграции: этнолингвистическое погружение (воссоздание традиционного уклада), коммуникативную интенсификацию (моделирование иноязычной среды) и творческую аккультурацию (освоение культуры через искусство). Исследование выявляет, что синтез нормативных мер, образовательных программ и неформальных интеракций способствует укреплению межэтнического диалога, снижению языковых барьеров и социальной стабильности. Однако для долгосрочной эффективности таких проектов необходима системная поддержка: разработка профильных образовательных курсов, расширение финансирования межрегиональных инициатив и внедрение мониторинга языковой компетентности участников. Результаты подтверждают, что культурное наследие выступает ключевым ресурсом социальной интеграции, а модели Башкортостана могут быть адаптированы в других полиэтнических регионах.

Ключевые слова: традиционные культуры, социальная интеграция, этнокультурная идентичность, языковые лагеря, народные промыслы, образовательные практики, полиэтническое общество, Башкортостан.

Annotatsiya. Maqola ko'p millatli jamiyatda an'anaviy madaniyatni saqlash va ijtimoiy integratsiya mexanizmlarini Bashkortostan Respublikasi misolida o'rganadi. "Yaylau", "SaleT-Tulpar", "Ustochikar" va "Hilton" sumer lagereining to'rtta ta'lif loyihasini tahlil qilish orqali etnokultural amaliyotlar, til botishuv va xalq hunarmandchiligi yoshlar orasida multicultural identifikasiya shakllantirishdagi roli ochiladi. Lagerning uchta integratsiya strategiyasi ko'rsatilgan: etnolingvistik botishuv (an'anaviy turmush tarzini tiklash), kommunikativ kuchaytirish (xorijiy til muhitini modellashtirish) va ijodiy akkul'turatsiya (san'at orqali madaniyatni o'zlashtirish). Tadqiqot ijtimoiy mustahkamlikni oshirish, til to'siqlarini kamaytirish va interetnik dialogni mustahkamlash uchun nizomiy chora-tadbirlar, ta'lif dasturlari va rasmiy bo'limgan o'zaro ta'sirlarning kombinatsiyasining ahamiyatini ta'kidlaydi. Uzoq muddatli loyihalarning samaradorligi uchun maxsus ta'lif kurslarini ishlab chiqish, mintaqalararo loyihalarni moliyalashtirish va ishtirokchilarning til kompetentsiyasini monitoring qilish zarur. Natijalar madaniy meros ijtimoiy integratsiyaning asosiy resursi ekanligini tasdiqlaydi va Bashkortostan modeli boshqa ko'p millatli mintaqalarga moslashtirilishi mumkin.

Kalit so'zlar: an'anaviy madaniyatlar, ijtimoiy integratsiya, etnik-madaniy o'ziga xoslik, til lagerlari, xalq hunarmandchiligi, ta'lif amaliyoti, ko'p millatli jamiyat, Boshqirdiston.



MUNDARIJA

Hüseyanova Mahirə Nağı qızı. AZƏRBAYCAN VƏ ÖZBƏK DİLLƏRİNDE HİDRONİMİK VAHİDLƏRİN MÜQAYISƏLİ-LİNQVİSTİK TƏHLİLİ	5
Zulpukarov Kapar, Taliypova Sakhida Эргешбаевна. ОБ ОДНОМ ПОДХОДЕ К СРАВНИТЕЛЬНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ГРАММАТИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ ПАДЕЖНЫХ СУФФИКОВ В УЗБЕКСКОМ И КЫРГЫЗСКОМ ЯЗЫКАХ	12
Adilbekova Elmira Seytimovna, Cültan Saniamt Baýyırжанқызы. ABAY ESERLERİNDE İDEAL İNSAN: AHLÂK, BILGI VE İRFAN EKSENİNDE İNSAN-I KÂMIL	21
Sulton Tulu. "DADA QO'RQUT KİTOBI"NING YANGI TOPILGAN BURSA QO'LYOZMASI	30
Найманбай Айнур Рахымбердіқызы. АБАЙ ҚҰНАНБАЙҰЛЫ ПОЭЗИЯСЫ ЖӘНЕ ШЫҒЫСТАҚ САРЫН	37
Самситова Луиза Хамзиновна. ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА И ОБРАЗОВАНИЕ В РЕСПУБЛИКЕ БАШКОРТОСТАН	44
Mirvari İsmayılova Abbas qızı. AZƏRBAYCAN MƏTBƏX MƏDƏNİYYƏTİNİN MİLLİ İDENTİKLİYİ (və yaxud etnokulturoloji səciyyəsi)	52
Mustafa NERKİZ. KAZAK VE ÖZBEK ATASÖZLERİNDEN HAREKETLE KOLEKTİF BİLİNCİ VE BİRLİK KAVRAMI	65
К.С.Қалыбаева. ӨЗБЕК ЖӘНЕ ҚАЗАҚ ТІЛДЕРІНДЕГІ ФРАЗЕОЛОГИЗМДЕРДЕГІ ОРТАҚ ТАҢЫМ: ЭТНОЛИНГВИСТИКАЛЫҚ САЛЫСТЫРМАЛЫ ТАЛДАУ	74
Mavlonova Klaraxon Mahmudovna. MATN TUZILISHINI BELGILOVCHI KOMPONENTLAR TAHЛИLI	81
Кобыскан Александр Степанович. ЛЕТНИЕ ЛАГЕРЯ КАК ПРОСТРАНСТВО ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ: ОПЫТ БАШКОРТОСТАНА	87
Kambarova Saodat Irkinovna. O'QUVCHILARNING OBRAZLI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR YONDASHUVLAR	95
I SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	
Ubaydullayeva Rayxon Abdujalil qizi. AHMAD A'ZAMNING "RO'YO YOXUD G'ULISTONGA SAFAR" ASARIDA INTERYER TASVIRI	101
Sayalı Cəfərova. "AZƏRBAYCAN OĞLU ÖZBƏK ŞAIİRİ" MAQSUD ŞEYXZADƏ YARADICILIĞINA NƏZƏR	107
Маметова Диляфузза Алимовна, Алтынбекова Актерке Ерболатқызы. TÜRK HALK GELENEĞİNDE HOCA NASREDDİN: MİZAHIN VE HİKMETİN SİMGESİ	113
Адильбекова Эльмира Сейтимовна, Берикқызы Сая. TÜRK DESTAN ÇALIŞMALARI VE EPIK GELENEKLERİ HAKKINDA BAZI	123

